

MEN BOLAMNI URMAYMAN, RUHAN EZMAYMAN**Ne'matjonova Ruxshona Jasurbek qizi***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs talabasi*

"Qalbga berilgan ozordan ko'ra ,unga sanchilgan haqiqiy pichoq yaxshi."

Inson hayotda nechchi yil yashasada u umri davomida xato qilishdan to'xtamaydi,garchi undan qo'chsada baribir o'zi bilmagan holatda yana shu devorlarga boshi uriladi. Ammo insoniyatning eng katta qilmasligi ya'ni qaytarmasligi kerak bo'lgan xatosi esa ota-onasi unga qilgan xatolaridir!

Hech o'ylab ko'rganmisiz?! Nega odam xovlisiga gul ekadi,sholg'om eksa undan foydaliroqku... Nega yulduzlarga tikilganda qalbi rohatlanib,miyasi tinchlanadi,yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emasku...Nega onalar bolasing boshida alla aytadi? Go'dak allasiz uxlolmaydim? Nega ota-onamiz o'tib ketgan bobo-buvilarimizning qabrini ziyorat qilish uchun olib boradi? Marhum ularni ko'rmaydiku. Gap shundaki,insoniyatning xayvonotdan farqi -manaviyat deb ataladi. Shunday ekan inson o'z farzandiga hayvondek qaramasligi kerak. Afsuski jamiyatimizda hali hamon shunday oilalar borki ota-ona va farzandlari o'rtasida sog'lom munosabatlar shakllanmagan.Respublikamiz bo'ylab oilaviy ajrimlar soni yildan yilga o'sib bormoqda buning natijasida chala yetim bolalar soniga son qo'shiladi.Eng yomoni esa ,bola kuchli ruhiy zarba oladi,hayotga qiziqishi so'nadi.Bu tarafda bunday bolalar nafari oshayotgan bo'lgan bir paytda,u tomonda esa hali hamon farzandlari bilan to'g'ri munosabat o'rnatma olmagan ota-onalar mavjud.

"Bolani irodasini sindirmang,uni qo'llab-quvvatlang ,har qanday xatosini to'g'ri tushuntirishga urining!"

Tepada keltirilgan fikrlarni yaxshilab taxlil qilsak.Iroda, o'zi nima degani? Bu qanday tuyg'u? Iroda-bu insonni o'ziga bo'lgan ishonchi.Irodasiz insonda "Meni qolimdan kelmaydi,eplay olmayman "degan fikr hukmronlik qiladi. Hozir sizlarga bir hayotiy hikoyani so'zlab bermoqchiman,zero uni o'qib o'zingizga yetarlicha xulosa olasiz...

"Maktub"

Salom,mening go'zal qizim ,gulyuzligim,quvonchim,baxtigulim.Bu men,Ra'no ,sening oyingman ,baxtiqaro oyijoning. O'z bolasining taqdirini o'z taqdiridek bo'lishini istamagan onajoningman,nega bunday deyotganimni dunyoga kelganingdan keyin bilib olasan sevinchim,lekin sen hech havotir olma,men senga eng go'zal baxtni beraman,sening bir shirin oilang,onang va dadang,ukalaring bo'ladi.Men 17 yoshdaman hozir,hali turmushga ham chiqmaganman,ertaga esa maktabni bitiraman,to'g'ri balki hozir bu yozganlarimni o'qiganlar meni esdan og'igan deb o'yashi mumkin,lekin bu hayotda meni Allohimdan va sendan boshqa gaplashadigon, dardimni aytadigan insonim yo'q. Sen mening hayolimdagi bo'lajak farzandimsan.

Ertaga bitiruv oqshomim,lekin menga tog'alarim borishimga ruxsat berishmadi,ammo nima qilay o'rtoqlarimdan ajralgim kelmayapti,axir matabnini bir marta bitiraman,hali bilmadim uyimdagilar ular bilan ko'rishishga izin beradimi yo'qmi?! Shuning uchun yashirinchcha bitiruvimga bormoqchiman.Lekin meni tog'alarimning kaltaklaridan ,buvimning so'kishlaridan va oyimning bularning hammasiga qanday jim qarab turishidan hech kim ximoya qilaolmasligini bilaman, zotan 17yildan beri biror kun hayotimda hech narsadan hech narsa yo'q kaltak yiyeshsiz ,jazolanishsiz o'tmadiki bu tuyg'ular menga begona bo'lsa. Qo'shimchasiga, nima bilasanmi indimga meni tug'ilgan kunim hayotimda umuman tug'ilgan kunimni nishonlamaganmiz.Men har tug'ilgan kunimda dadam qaytib kelishini so'rardim,lekinbu safar unday qilmayman. Oyim menga dadam o'lganligini aytgandi,men lekin bunga hech ishongim kelmasdi,chunki qabri qayerda desam hech aytmaganlar.Bir yil avval esa qo'shnimiz oyim bilan gaplashayotgan paytida men ularni suhbatini eshitib qoldim. Qo'shnimiz Rahima opa oyimga erizni kecha bozorda yangi oilasi va bolalari bilan yurganini ko'rdim deyotgandi,o'sha vaqt men qanchalik quvonganimni tasavvur ham qilolmaysan,qizim.Aslida men o'ylagandek bo'lib chiqdi,meni dadam o'lмаган,u tirik ekan. Men buni bilganimdan so'ng dadamni izlashga tushdim,lekin oyimga hech narsani bildirmadim,agar aysam meni urishidan qo'rqedim.Keyin sekin Rahima opadan men o'sha kuni oyim bilan gaplashayotganida uni eshitib hammasini bilganimni aytdim.Ulardan yolvorib dadam haqida hamma narsani aytib berishlarini ,hech bo'lmasa telefon raqamlarini topib berishini so'radim,Robbimga ming shukurki ular menga yordam berdilar. Oradan bir hafta o'tib Rahima opa menga dadamni telefon raqamlarini olib berdilar,o'sha zahotiyoyq dadamga qo'ng'iroq qilish uchun yashirinchcha bitiruvimni telefonini olib mahalla boshiga yugurib ketdim.Bir tinch joy topib vanihoyat dadamga qo'ng'iroq qildim.U paytda chaqiruvni kutish ham menga shunchalik qiyin ediki,qani endi dadam tezroq telefonni ko'tarsa ,qani endi bir bor ovozini eshitsam,qizim degan so'zini eshitsam,men katta bo'lGANIMNI va sizni tirik ekanligingizni bildim dadajon desam,sizni ko'rgim kelyapti dadajonim,meni buyerlardan olib keting ,qutqaring,sizni mehringizga muhtojman desam...Dadam telefonni ko'tardiyo "alo,eshitaman"degan gapini eshitib, yuragim to'xtab qolganddk bo'ldi,ko'zlarimdan to'xtovsiz yoshlari oqishni boshladi.Bir necha soniya jim turib quvonch ko'z yoshlari bilam "Dadajon ,men sizni qizingiz Ra'noman" dedim.

-Nima,Ra'no?! Qizim,bu rostan ham senmisan,bolam?

-Ha,dadajonim.Men sizni vanihoyat topdim,dada.Sizni o'lмаганингизни bilardim ,doim buni his qilib kelardim.Siz bor ekanligingizni ,bir kun kelib sizni topishimni bilar edim,dadajonim.

- Qizalog'im,meni kechir qizim,onangni oldiga necha marta bordim,seni ko'rish uchun lekin biror marta ham ko'rsatmadi.Ikki oyligingda ko'rgan bo'yim seni hech ham ko'raolmadim qizim.O'zing yaxshimisan bolam,uydagilar :onang,buvung ,tog'alaring yaxshimi ?

-Dada,meni axvolim juda yomon,meni buyerdan olib keting,siz bilan yashay dadajon,iltimos.Bilaman,yangi oilangiz ,farzandlarimgiz bor ekan,lekin men hech kimga xalaqit bermay yashayman,oshxonada bo'lsa ham yo'taveraman,faqat meni buyerdan olib keting ,iltimos dadajon!

-Ra'no,nima bo'ldi ,seni uyda hafa qilishdimi?Yoki oyin so'kdimi? Nima bo'ldi ,nega bunday deyapsan?

-Koshkidi, faqat onam so'ksa,koshkidi siz so'ksangiz ,dadajon.Lekin 17 yil davomida men bu uyda tog'alarim va buvimning har kunlik so'kish va meni kaltaklab urushlarida yashayabman,dada. To'yib ketdim bu hayotdan.O'rtoqlarim kabi ota-onam mehri ila yashashni xohlayman,dada. Tog'alarimning urishlaridan halos bo'lishni istayman.

Bundan so'ng dadamni rosti tog'alarim,buvim va onamdan juda qattiq jaxli chiqib o'sha zahotiyooq bizni uyg'a meni olib ketgani keldi.Oyim dadamni ko'rib ,- "Endi bola kerak bo'lib qoldimi?Shu yoshiga yetgungacha qayerda edingiz?"deb rossa urishdilar.Dadam ham million marta meni ko'rishgs kelganini va biror marta ham ko'rsatmaganini aytdi.Uyda rossa katta janjallar bo'ldi,xatto ichki ishlar xodimlari ham keldi.Dadam meni olib ketish uchun juda ko'p harakat qildi.Lekin afsuski,onam bilan ajrashayotkan payti ,bolani vakolatini oyimga bergen ekan.Balog'atga yetmagunimcha buni o'zgartira olmas ekanmiz,har xolda shunday deb tushundim men.Dadam, hamma narsa tugaganidan keyin ,oldimga kelib quchoqlab:"Men seni buyerdan baribir olib ketaman qizim,olib ketaman,faqat ozgina chidab tur qizim "dedi. Men ham rozi bo'ldim.So'ngra dadam bilan biz tez-tez yashirinchka ko'rishadigan bo'ldik.Dadam qo'shimcha to'garaklarimga va o'zimga pul berib turadigan bo'ldi. Hayotim yaxshilanishiga menda uchqun tug'ilgan edi o'sha damlar. Urimda hech bo'lmasa meni yaxshi ko'ruvchi dadam borligini bilib quvonardim,uyimdagilar menga qancha ozor berishsa ham chiqashga o'zimda kuch topardim,chunki dadam menga ozgina chida qizim deb aytib ketgan gaplarini bir soniya ham esimdan chiqarmasdim. Maktabni bitishimga ham 1 yil qolgandi,men to'garaklarga qatnashib o'qishga kirmoqchi bo'ldim.Chunki bu uydan ketishning yagona yo'li Toshkentga o'qishga kirib ,buyerdan ketish edi.Mana shu 1 yil o'tishi shunchalar qiyin bo'ldiki,lekin men chidadim.Hammasinga bardoshli bo'ldim.Dadam menga Toshkentdan uy olib qo'ganini aytdi,agar o'qishga kirsam o'sha uyda dadam bilan turaman ekan.Buni eshitib,hayotda mendan baxtli inson yo'q edi,tezroq o'qishga kirib ,ketishni xohlardim.Mana bugun o'sha 1 yil ham o'tkan kun. Ertaga esa maktabni bitiraman.O'qishga esa ariza topshirib qo'yanman. Ertagalik bitiruvimga bir amallab yashirinchka borib kelib olsam bo'lgani.Eng zo'ri esa ertaga dadam menga gullar va sovg'alar berarkan,maktabni bitirganim uchun.Dada deyotganimga xatto hozirgacha ishongim kelmaydi.Meni dadam bor,meni yaxshi ko'ruvchi dadam bor,meni qizalog'im,mehribonim,asal qizim,go'zallar go'zalim deb chaqirib erkalatuvchi dadajonim bor...

Vanihoyat,tong otdi.Ammo juda qattiq qo'rquvdaman tog'alarim bilib qolmasa bo'ldi deb.Ishda bo'lishida bugun ammo. Menimcha bitiruvimga borib kelishga

ulgiraman. Soat 6:00 uyda hamma uxlayapturgen vaqtি bir amallab uydan ham chiqib oldim. Maktabimda esa hamma bitiruvchilar chiroyli kiyimlarda,hammani ko'zlarida quvonch.Juda ajoyib bitiruv oqshomi bo'layapti.Men ham sinfdoshlarim bilan mazza qilib suhbatlashdim,o'ynadik,kuyladik,raqslarga tushdik.Dadam ham bu orada keldi,menga gullar va bir dunyo sovg'alar olib kelibdi.Men xohlagandek katta yumshoq ayiq olib kelganini ko'rib rossa quvondim,bitiruvdan keyin dadam bilan kafeda birga ovqatlanmoqchi bo'lrik.Dadamni ish xonasidan chaqirib qolishdi,10daqiqalik ishim chiqib qoldi qizim,men oxirgi raqsingni o'ynaguningcha qaytib kelaman deb ketdilar. Kunim juda zo'r o'tayotgan edi.Afsuski buni ham menga ko'p ko'rdi taqdir... Oxirgi raqsimizni o'ynashni endi boshlagan edik,sahnaning o'rtasida men raqsga tushayotgandim. Nima bo'lganini o'zim ham tushunmay qoldim,bir qarasam tog'alarim va buvim kelib meni sahnani o'rtasida hammaning oldida kaltaklashni boshlab ketdilar."Hali senmi bizni aytkanimizga kirmaydigon,senga bitiruv-mitiruv yo'q demaganmidik,qiz bo'lmay har balo bo'lgur "deb uygacha urub ketishdi. Hammaning oldida izza bo'ldim. Maktabdagilar ham hech narsa qilaolmadi. O'sha vaqt dadamni kelib qolishini rossa kutdim,ammo o'sha 10daqqa hali o'tmagan edi, afsuski... Men hammasidan to'yib ketdim,nega aynan mening taqdirim shunday? Nega men hammaga o'xshab yashay olmayman? Nimagaaaa??? Boshqa chidayolmayman ,dadajon.Meni kechiring,men boshqa kutaolmayman... Menga bergen mehringiz uchun rahmat ,dada.1 yil bo'lsa ham mening dadam borligini xis qildirganingiz uchun rahmat dadajonim,lekin meni boshqa kuchim qolmadi dada... Bir qizning taqdiri shunday bo'ladigan bo'lsa ,yaxshisi men farzand ko'rmaganim ma'qul.Uni ham menga o'xshab qiynalishini istamayman,men uni baxtsiz bo'lishini xohmayman. Kechiring,dadajonim,kechiring.

Bo'lajak farzandim,jonim bolajonim, jannatyuzligim ,asal qizim seni bu dunyoga keltirmay o'lmoqchi bo'layotgan onangni kechir , qizalog'im.Men senga va'da qilgan baxtimni bajaraolmayman o'layotgan onangni kechir. Sen dunyodagi eng go'zal, baxtli qiz bo'lasan degan vadaboz onangni kechir ,bolam....

Boshqa chiday olmayman Allohim,seni oldinga ketyabman,bilaman bu qilmoqchi bo'lgan ishim katta gunoh,lekin boshqa chora ko'rmayabman.Shuncha chidaganim yetar,boshqa kuchim qolmadi. Meni kechir Allohim.Yoninga ketyabman...Dadajon,sizni yaxshi ko'raman,meni kechiring ..

Ra'no,o'sha kuni kechqurun yerto'lada o'zini osib ,o'z joniga qasd qildi. 18 yoshli qizning hayoti shu tariqa yakun topdi.

Xulosa esa o'zingizdan. Farzandlarimizni vaqtida asrab-avaylaylik, mehrimizdan ularni uzoq tutmaylik, zero farzandlar Yaratganning bizga bergan buyuk omonatidir!